



YENGIL SANOAT KORXONALARIDA TAYYOR MAHSULOTLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Babakulova Matluba Kurbannazarovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada yengil sanoat, xususan to'qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini ta'minlashda tayyor mahsulotlarning haqiqiy qiymatda aks ettirilishining ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, tayyor mahsulotlarning qadrsizlanishi, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi hamda qadrsizlangan tayyor mahsulotlar bo'yicha zaxiralarni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Maqola natijalari korxonalarda moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va foydalanuvchilar uchun ishonchli moliyaviy axborot taqdim etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tayyor mahsulotlar hisobi, yengil sanoat, to'qimachilik korxonalari, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, GAAP, IFRS, qadrsizlangan tayyor mahsulotlar.

Kirish

Globalashuv sharoitida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, avvalo, ishonchli va shaffof axborot bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy iqtisodiy muhitda axborot strategik resurs sifatida namoyon bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga oid qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. XXI asrda axborotning tez tarqalishi va o'zgaruvchanligi moliyaviy hisobotlarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Tayyor mahsulot harakati hisobini to'g'ri tashkil qilish korxona tomonidan ishlab chiqilgan buyum turlari nomining ro'yxati - nomenklaturasidan foydalanish katta ahamiyatga ega. Uni tuzish asosida tayyor mahsulotni turkumlash, yani, ushbu korxonada ishlab chiqiladigan bir mahsulot turini boshqa mahsulotlardan ajratib turuvchi ma'lum belgilari yotadi. Nomenklatura ro'yxatini tuzishda asos qilib quyidagi belgilar olinadi: model, fason, artikul, marka va hokazo. Har bir mahsulot turiga nomenklatura raqami birlashtiriladi, u turli sonlardan iborat boiadi. Hisob-kitobning jurnal - order shaklida tayyor mahsulotning analitik hisobi 16-qaydnomada yuritiladi. Bu qaydnoma to'rtta bo'limdan iborat bo'lib ular



quyidagilardir:

1-bo'lim "Tayyor mahsulotning pul shaklidagi harakati" deb nomlanadi va unda mahsulotning hisobot oyi boshlanishiga qoldigi, omborga qabul qilingan xaridorlarga jo'natilgan va hisobot oyi oxiriga qoldig'i hisobda qabul qilingan baho hamda haqiqiy tannarxda ko'rsatiladi.

2-bo'lim "Jo'natilgan va sotilgan mahsulotlar" deb nomlanib, unda jo'natilgan mahsulotlarning analitik hisobi xaridor korxonalar nomiga yozilgan har bir to'lov talabnomasi bo'yicha alohida yuritiladi.

3-bo'lim "To'langan va to'lanmagan schyotlar haqida umumiy ma'lumotlar" deb nomlanib, unda jo'natilgan va sotilgan mahsulotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar ko'rsatiladi.

4-bo'limda soliq bo'yicha soliq idoralari bilan hisob-kitob ma'lumotlari keltiriladi.

Hisobot davri oxirida 16-qaydnomaning oylik jami summasi 11-jurnal orderga ko'chiriladi. Bu jurnal-order ikki bo'lim dan iborat bo'lib, 1-bo'limda tayyor mahsulot, realizatsiya bilan bog'liq xarajatlar schyoti, jo'natilgan tovarlarni, sotish, xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitob schyotining krediti bo'yicha yozuvlar keltiriladi. Ikkinchi bo'limda mahsulot sotish bo'yicha analitik hisob ma'lumotlari keltiriladi. 16-qaydnoma va 11-jurnal-order asosida tuziladigan tovarni sotish haqidagi hisobotda quyidagi ko'rsatkichlar ko'rsatiladi: sotilgan mahsulotning reja tannarxi, reja va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq, sotish bilan bog'liq xarajatlar schyoti, soliq, sotishdan olingan tushum va oxirgi moliyaviy natija, ya'ni foyda yoki zarar summasi.

Tayyor mahsulotni jo'natishni hisobga olish. Ombordan tayyor mahsulot xaridorlarga korxonaning sotish bo'lim i buyrug'iga asosan jo'natiladi. Mahsulotni sotish xaridor korxonalar bilan tuzilgan shartnoma va jo'natish grafigiga muvofiq amalga oshiriladi. Sotish rejasini bajarishda xaridorlarga jo'natilgan mahsulot hisobini to'g'ri tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Buni mahsulot ortib jo'natishdan tortib to uning uchun xaridorlardan pul kelib tushgunicha bo'lgan tovar mahsulotining harakatini doimiy ravishda kuzatib turish kerak. Bunday nazorat har bir dastlabki hujjat bilan jo'natilgan mahsulot bo'yicha alohida yuritilib, shu mahsulotning qachon va kimga jo'natilganligi, uning yoidagi harakatiga qancha vaqt ketishi kerakligi va haqiqatda qancha vaqt ketganligi, qanday xaridorlar mahsulotni qachon qabul qilib olganliklari va qachon pulini to'lash kerakligi, qanday xaridorlar ularga jo'natilgan mollar uchun pul to'lamagan va nima uchun to'lanmaganligini, xullas, yo'ldagi barcha tovar mahsulotning taqdiriga doir masalalar haqida xabardor bo'lib turish imkonini beradi. Tayyor mahsulot sifatini nazorat qilish usullaridan biri inventarizatsiya hisoblanadi. Tayyor mahsulotlarni inventarizatsiya qilishning asosiy vazifasi - omborda va



jo‘natilgan tayyor mahsulotlarning haqiqiy mavjudligini hisobga olish ma‘lumotlariga muvofiqligini tekshirish. Shu bilan birga, yetkazib berish schyot-fakturalari rasmiylashtirilmagan mahsulotlar, qayta saralanganlik, shikastlanganlik, tayyor mahsulotning ortib ketganligi va yetishmasligi faktlari aniqlangan, jo‘natilgan tovarlar schyotidagi mablag‘lar qoldig‘ining hujjatlashtirilganligi va asosiligi tekshirilganligi, to‘liq bo‘lmagan yoki muddati o‘tgan schyot-fakturalar to‘langanligi aniqlanadi. Shunday qilib, amalga oshirish jarayoni korxonaning xo‘jalik mablag‘larining aylanishini yakunlaydi, bu esa unga davlat budjeti, bank ssudalari, ishchi va xizmatchilar, yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarini bajarish va ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash imkonini beradi.

Schyot-faktura yoki to‘lov talabnomasining alohida bo‘lmasida tara va qadoqlash qiymati hamda xaridor tomonidan to‘lanadigan temir yo‘l bo‘yicha ta‘rif summasi ko‘rsatiladi. Bazida xaridor tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan temir yo‘l ta‘rifi bo‘yicha summaga umumiy mahsulotning sotish bahosi qo‘shib ko‘rsatilishi mumkin. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi alohida bo‘limda ko‘rsatiladi. Mol yetkazib beruvchi va xaridor o‘rtasida tuzilayotgan shartnoma vaqtida franko-joy to‘g‘risida to‘xtalib o‘tiladiki, bunda mahsulotni ortib jo‘natish bilan bog‘liq xarajatlarni mol yetkazib beruvchi o‘z zimmasiga oladi. Franko joyning quyidagi turlari mavjud: Franko-ombor mol yetkazib beruvchi. Bunda mahsulot ortib jo‘natish bilan bog‘liq xarajatlarni mol yetkazib beruvchi korxona to‘lov-talabnomasiga qo‘shadi (ombordagi ortib tushurish ishlarining qiymati temir yo‘l tarifi va yetkazib berish xarajatlari). Franko-stansiya jo‘natish shunday narxki, u mol yetkazib beruvchi to‘lov talabnomasining summasi, temir yo‘li ta‘rifi va mahsulotni vagonga ortish xarajatlari yig‘indisidan iborat. Belgilangan stansiyagacha franko-vagon shunday narxki, bunda mol yetkazib beruvchi to‘lov talabnomasiga faqat temir yo‘l ta‘rif summasini qo‘shadi.

Korxonalarining samarali faoliyati va ularning investitsion jozibadorligi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va haqqoniyligiga bevosita bog‘liqdir. Moliyaviy hisobotlar orqali korxonaning muayyan davrdagi moliyaviy holati, moliyaviy natijalari, pul oqimlari va xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar to‘liq yoritib beriladi.

O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotlarni yuritish buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida amalga oshiriladi. Jumladan, 1-sonli **“Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”** standartiga muvofiq yillik moliyaviy hisobot quyidagi shakllardan iborat bo‘ladi: buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot hamda izohlar.

Mazkur standartda moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda uzluksizlik prinsipi muhim



o‘rin egallaydi. Ushbu prinsipga ko‘ra, xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z faoliyatini kelgusida ham davom ettiradi, tugatilishi yoki faoliyat ko‘lamini qisqartirishi ehtimoli mavjud emas deb qaraladi. Agar bunday holat yuzaga kelsa, u moliyaviy hisobot izohlarida ochib berilishi lozim.

Mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investorlarni jalb etish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ–4611-sonli qarori moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotda uchrayotgan muammolardan biri korxona balansida aktivlarning, jumladan, tayyor mahsulotlarning haqiqiy qiymatda aks ettirilmasligidir. Bu holat investorlarda korxonaning real moliyaviy holati haqida noto‘g‘ri tasavvur shakllanishiga olib keladi.

Tayyor mahsulotlar — ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlaridan o‘tgan va iste‘mol qilishga tayyor bo‘lgan mahsulotlardir. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy maqsadi tayyor mahsulotlarni sotish va foyda olishdan iboratdir. Omborlarda uzoq vaqt saqlanib qolgan tayyor mahsulotlar esa korxona uchun zarar manbaiga aylanadi.

Bozor talabining o‘zgarishi, texnologiyalarning tez yangilanishi va iste‘molchilar didining o‘zgarishi natijasida tayyor mahsulotlar qadrsizlanishi mumkin. Qadrsizlangan tayyor mahsulot — bu sotilishi qiyinlashgan yoki bozor qiymati keskin pasaygan mahsulotdir.

Umumiy qabul qilingan buxgalteriya tamoyillariga (GAAP) muvofiq, agar tayyor mahsulotning bozor qiymati uning balansdagi tannarxidan past bo‘lsa, mahsulot qiymati kamaytirilishi lozim. Agar mahsulot jismoniy jihatdan yaroqsiz holga kelgan bo‘lsa va sotilishi imkonsiz bo‘lsa, u buxgalteriya hisobidan chiqariladi.

Qadrsizlangan tayyor mahsulotlar bo‘yicha zaxira schyotlari shakllantiriladi va tegishli xarajat schyotlari orqali aks ettiriladi. Bu jarayon korxona aktivlarining sof balans qiymatini real holatga keltirish imkonini beradi hamda moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta‘minlaydi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi. Qadrsizlangan tayyor mahsulotlarni o‘z vaqtida aniqlash va hisobga olish korxonaning moliyaviy holatini real aks ettirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda foydalanuvchilar uchun haqqoniy axborot taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1. Achilov A.N. Kimyo sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish. Iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent, 2019. -54 b.;
2. Axmedjanov K.B. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. 08.00.07. i.f.d. diss. avtoreferati. O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. -Toshkent, 2016. -76 b.;
3. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati: 08.00.08. -Toshkent, 2004. -42 b.;
4. Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot auditi metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fanl. dokt. (DSc) disser. avtoreferati. –T.: 2021, 66 b.55
5. .; Nabiyev M.A Avtosanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar va ularni sotish hisobini takomillashtirish. Iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2021. -52 b.